



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

XORIJIY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Odilov Komiljon Furqatjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash bilan birga milliy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi natijasida xorijiy til o'qitish metodikasida yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash yo'llari, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda amaliy qo'llash mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar:

xorijiy til, milliy qadriyatlar, zamonaviy metodlar, globallashuv, ta'lim, kommunikativ yondashuv, integratsiya.

Аннотация.

В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется вопрос сохранения национальных ценностей наряду с применением современных педагогических методов в процессе обучения иностранным языкам. В условиях глобализации, стремительного развития информационных технологий и широкого внедрения инновационных подходов в систему образования возникают новые возможности в методике преподавания иностранных языков. Вместе с тем особую значимость приобретает сохранение национальной идентичности и культурного наследия. В статье освещаются пути обеспечения гармонии современных методов и национальных ценностей, их влияние на эффективность обучения, а также механизмы их практического применения.

Ключевые слова:

иностраный язык, национальные ценности, современные методы, глобализация, образование, коммуникативный подход, интеграция.

Abstract.

This article analyzes, from both theoretical and practical perspectives, the issue of preserving national values alongside the application of modern pedagogical methods in the process of teaching foreign languages. Due to globalization processes, the rapid development of information technologies, and the widespread implementation of innovative approaches in the education system, new opportunities are emerging in foreign language teaching methodology. At the same time, maintaining national identity and preserving cultural heritage remains highly important in this process. The article highlights ways to ensure the harmony of modern methods and national values, their impact on the effectiveness of education, and the mechanisms for their practical implementation.

Keywords:

foreign language, national values, modern methods, globalization, education, communicative approach, integration.

Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni bilish oddiy bilim yoki qo'shimcha ko'nikma emas, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Bugungi kunda har bir talaba yoki yosh mutaxassis kamida bitta xorijiy tilni egallashi muhim talablardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki ilm-fan, texnologiya, biznes va axborot almashinuvi jarayonlarining katta qismi aynan xorijiy tillar orqali amalga oshirilmoqda. Internet tarmoqlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning asosiy qismi ham ingliz tili boshchiligidagi xorijiy tillarda taqdim etilayotgani bu zaruratni yanada kuchaytirmoqda. Natijada xorijiy tilni bilgan inson kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, o'z bilim va salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o'rganish jarayoni faqat tilni egallash bilan cheklanib

qolmaydi [1]. U insonning dunyoqarashi, fikrlash tarzi hamda madaniy qarashlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chunki har bir til o'zida muayyan millatning tarixi, urf-odatlar, qadriyatlari va turmush tarzini aks ettiradi. Demak, til o'rganayotgan shaxs bevosita boshqa madaniyat bilan ham tanishadi va ma'lum darajada uni qabul qiladi. Aynan shu jihat xorijiy tillarni o'rganish masalasini yanada dolzarb va murakkab qiladi [2]. Bunday sharoitda muhim bir savol yuzaga keladi: xorijiy tillarni o'rganish jarayonida milliy qadriyatlarimiz qay darajada saqlanmoqda? Ayrim holatlarda yoshlar orasida xorijiy madaniyatga haddan tashqari berilib ketish, o'z milliy qadriyatlariga nisbatan e'tiborning susayishi kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida ham muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [3]. Ayniqsa, globallashuv ta'siri kuchayib borayotgan bugungi davrda milliy o'zlikni saqlab qolish, uni rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xorijiy tillarni o'rganish bilan bir qatorda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar ongiga singdirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Mazkur maqolada aynan shu masala – xorijiy tillarni o'qitish jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolishning ahamiyati, muammolari va yechimlari kengroq yoritib beriladi [4].

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati

Hozirgi ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy metodlardan ko'ra zamonaviy yondashuvlar tobora ustunlik qilmoqda. Chunki bugungi kun talabi faqat nazariy bilim berish emas, balki o'quvchini real hayotda tilni erkin qo'llay oladigan darajaga yetkazishdan iborat. Shu bois kommunikativ metod, interaktiv usullar, loyiha asosida o'qitish, hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng qo'llanilmoqda va ular ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Kommunikativ metodning asosiy maqsadi - o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qila olishga o'rgatishdir. Ushbu yondashuvda grammatik qoidalarni faqat yodlash emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash muhim hisoblanadi [5]. Masalan, dialoglar tuzish, rolli o'yinlar, kundalik hayotga oid suhbatlar orqali o'quvchilar tilni "his qilib" o'rganadi. Natijada ular nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gapira boshlaydi, balki o'z fikrini erkin va ravon ifoda etish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv metodlar esa o'quv jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning faolligini oshiradi. An'anaviy darslarda ko'proq o'qituvchi faol bo'lsa, interaktiv yondashuvda o'quvchi markazga chiqadi. Guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar, "aqliy hujum", savol-javoblar va taqdimotlar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rganadi. Bundan tashqari, bu metodlar jamoada ishlash, muloqot madaniyati va liderlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Eng muhimi, o'quvchilar darsga qiziqish bilan yondashadi, bu esa bilimni mustahkam o'zlashtirishga olib keladi. Loyiha asosida o'qitish metodi ham bugungi kunda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi [6]. Bu usulda o'quvchilar muayyan mavzu asosida mustaqil yoki guruh bo'lib loyiha tayyorlaydi. Masalan, biror mamlakat madaniyati, ta'lim tizimi yoki turizm salohiyati haqida loyiha ishlab chiqish orqali o'quvchilar tilni chuqurroq o'zlashtiradi. Bu jarayonda ular izlanadi, ma'lumot to'playdi, tahlil qiladi va yakunda natijani xorijiy tilda taqdim etadi. Natijada nafaqat til ko'nikmalari, balki tadqiqot olib borish, axborotni tahlil qilish va taqdim etish kabi muhim kompetensiyalar ham rivojlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi esa xorijiy til o'rganish jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda turli onlayn platformalar, mobil ilovalar, video darslar, podkastlar va interaktiv dasturlar orqali til o'rganish imkoniyatlari kengayib

bormoqda. Masalan, o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham mustaqil ravishda tilni mashq qilishi, chet elliklar bilan muloqotga kirishishi, autentik materiallar bilan ishlashi mumkin. Multimedia vositalari - audio va video materiallar esa tinglab tushunish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy metodlar o'qituvchidan ham yangi yondashuvlarni talab etadi. Endilikda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va motivatsiya beruvchi rolini bajaradi. U darsni qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali yuqori natijalarga erishadi. Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, erkin muloqot qila oladigan va zamonaviy bilimlarga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [7].

Milliy qadriyatlarining ta'lim jarayonidagi o'rni nihoyatda keng va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, uning dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar deganda xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analari, ma'naviy qarashlari, axloqiy me'yorlari va turmush tarzini belgilovchi omillar tushuniladi. Ular jamiyatning o'ziga xosligini saqlab qolish va uni keyingi avlodlarga yetkazishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki ta'lim faqat fakt va ma'lumotlarni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki shaxsni jamiyatga mos, ongli va mas'uliyatli inson qilib tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi [8]. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar tarbiyaviy vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o'zaro aralashib borayotgan bir davrda yoshlarning o'z milliy ildizlariga sodiq qolishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli g'oyalar tez tarqalmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlar yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy qalqon vazifasini bajaradi. Shu sababli ta'lim tizimida ularni chuqur va tizimli ravishda singdirish zarur. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning ikki tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bir tomondan, ular yangi tilni o'rganadi, ikkinchi tomondan esa o'z milliy madaniyatini chuqurroq anglaydi. Til o'rganish jarayonida milliy kontentdan foydalanish o'quvchilarga mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stligi, kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlar kabi tushunchalarni ingliz yoki boshqa xorijiy tillarda ifodalash orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashadi. Dars jarayonida milliy bayramlar va an'analarni o'rganish ham muhim metodik yondashuvlardan biridir. Masalan, Navro'z bayrami haqida ingliz tilida prezentatsiya tayyorlash, rolli o'yinlar tashkil etish yoki bahs-munozaralar o'tkazish orqali o'quvchilar til ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga ular o'z madaniyatini tizimli ravishda o'rganadi va uni boshqalarga yetkazish qobiliyatini rivojlantiradi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini erkin ifoda etish, madaniyatlararo muloqotga kirisha olish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir [9]. Ayniqsa, bugungi kunda xorijiy tillarni bilish bilan birga o'z milliy madaniyatini tushuntira olish ko'nikmasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, milliy qadriyatlarni ta'limga integratsiya qilish o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini rivojlantiradi. Ular o'z tarixiga, ajdodlariga va madaniyatiga hurmat bilan qarashni o'rganadi. Bu esa ularning ijtimoiy hayotda faol va mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishiga

xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning faqat bilimlari emas, balki ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda bu yondashuvni qo'llash o'quvchilarning global dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularning milliy o'zligini saqlab qolishiga yordam beradi.

Zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlar integratsiyasi bugungi ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda bu ikki omilni uyg'unlashtirish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki zamonaviy metodlar o'quvchini faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etsa, milliy qadriyatlar unga ma'naviy mazmun va chuqurlik baxsh etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kommunikativ metod, interaktiv usullar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlarni milliy qadriyatlar bilan boyitish esa o'quvchilarda nafaqat bilim, balki o'zlikni anglash, milliy g'urur va madaniy ongini ham shakllantiradi. Natijada dars jarayoni faqat til o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, rolli o'yinlar (role play) usuli xorijiy til darslarida juda samarali hisoblanadi. Bu usul orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib, tilni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar ushbu rolli o'yinlar milliy qadriyatlar asosida tashkil etilsa, ularning ta'siri yanada ortadi. Jumladan, "mehmon kutish", "to'y marosimi", "Navro'z bayrami" kabi mavzularda sahna ko'rinishlari tashkil etish o'quvchilarni faol harakatga undaydi. Ular nafaqat xorijiy tilda muloqot qiladi, balki o'zbek xalqining urf-odatlarini ham chuqurroq anglaydi va ifodalaydi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Ayniqsa, jamoa bo'lib ishlash, o'z rolini to'g'ri bajarish, sahna madaniyatiga rioya qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvni ta'minlaydi. Loyiha asosida o'qitish (project-based learning) ham milliy qadriyatlarni integratsiya qilishda samarali metodlardan biridir. Bu metod orqali o'quvchilar mustaqil ravishda izlanadi, ma'lumot to'playdi va uni taqdim etadi. Masalan, o'quvchilarga "O'zbekistonning milliy bayramlari", "Milliy taomlar", "Tarixiy obidalar", "O'zbek xalqining urf-odatlari" kabi mavzularda loyiha ishlari topshirilishi mumkin. Ular ushbu mavzular asosida prezentatsiyalar tayyorlab, xorijiy tilda himoya qiladi. Bunday faoliyat o'quvchilarning nafaqat til bilimi, balki ijodiy fikrlash, tahlil qilish, taqdimot qilish kabi ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular o'z yurtining boy madaniy merosi bilan faxrlanish hissini tuyadi. Bu esa ularning ichki motivatsiyasini oshiradi va o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Madaniyatlararo taqqoslash (comparative method) usuli ham zamonaviy ta'limda keng qo'llanilmoqda. Bu usul orqali o'quvchilar o'z milliy madaniyatini boshqa xalqlar madaniyati bilan solishtiradi. Masalan, o'zbek va ingliz xalqlarining bayramlari, ovqatlanish madaniyati, kiyinish uslubi yoki oilaviy qadriyatlarini taqqoslash orqali o'quvchilar o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi. Bu esa ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham integratsiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Masalan, videoroliklar, onlayn platformalar, virtual ekskursiyalar orqali o'quvchilarga milliy madaniyatni zamonaviy usulda yetkazish mumkin. Bu esa darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlar uyg'unligi o'quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Ular o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, madaniyatlararo muloqotga tayyor, o'z millatini hurmat qiladigan va boshqalarga ham hurmat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllanadi.

Xorijiy til o'qitishda zamonaviy metodlarni joriy etish jarayoni ko'plab ijobiy natijalarni berayotgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar ham uchrab turadi. Bu muammolar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni o'z vaqtida aniqlab, samarali yechimlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Eng asosiy muammolardan biri - o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik metodlar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligidir. Ko'plab o'qituvchilar an'anaviy usullarda dars o'tishga o'rganib qolgan bo'lib, yangi metodlarni qo'llashda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa darslarning samaradorligini pasaytiradi va o'quvchilarning faol ishtirokini cheklaydi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, kommunikativ yondashuv yoki loyiha asosida o'qitish kabi usullarni amaliyotga tatbiq etish uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Yana bir muhim muammo - ta'lim muassasalarida texnik vositalarning yetarli darajada emasligidir. Zamonaviy metodlar ko'pincha axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter, proyektor, interaktiv doska, internet tarmog'i kabi vositalarning yetishmasligi yoki sifatsizligi dars jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Natijada o'qituvchi zamonaviy yondashuvlardan to'liq foydalana olmaydi. Shuningdek, mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarining hammasi ham bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Ba'zi darsliklarda zamonaviy metodlar yetarli darajada aks ettirilmagan, mashqlar esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlar bilan integratsiya masalasi ham barcha o'quv materiallarida bir xil darajada yoritilmagan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator amaliy choralar ko'rish zarur. Avvalo, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim. Maxsus seminarlar, treninglar, onlayn kurslar orqali o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish lozim. Bu jarayon uzluksiz bo'lishi kerak, chunki ta'lim tizimi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Davlat va xususiy sektor hamkorligida maktablar va oliy ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan jihozlash dars sifatini sezilarli darajada oshiradi. Internetdan samarali foydalanish imkoniyatining yaratilishi esa o'quvchilar uchun keng bilim manbalariga yo'l ochadi. Darslik va o'quv qo'llanmalarni yangilash ham muhim yo'nalishlardan biridir. Zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan, interaktiv topshiriqlar va milliy qadriyatlar bilan boyitilgan o'quv materiallari o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Bunda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy mashg'ulotlarga ham keng o'rin berilishi lozim. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarur. Masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual sinflar orqali o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qiladi. Shuningdek, tajriba almashish tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasini ommalashtirish, ochiq darslar tashkil etish va metodik qo'llanmalar yaratish orqali boshqa pedagoglarga ham samarali usullarni o'rganish imkoniyati yaratiladi. Umuman olganda, mavjud muammolarni tizimli yondashuv asosida hal etish orqali xorijiy til o'qitishda zamonaviy metodlarni samarali joriy etish va ularni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish mumkin. Bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada

ta'lim jarayoni an'anaviy yodlashdan chiqib, interaktiv va samarali tus oladi. Biroq bu jarayonda milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni ta'lim bilan uyg'unlashtirish masalasi ham juda muhimdir. Chunki har qanday bilim, agar u milliy asos bilan boyitilmasa, o'quvchining ma'naviy kamolotiga to'liq xizmat qila olmaydi. Milliy qadriyatlar o'quvchilarda o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatanparvarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi. Zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlarning uyg'unligi esa ta'lim jarayoniga yangi mazmun bag'ishlaydi. Bu orqali o'quvchilar nafaqat xorijiy tillarni puxta egallaydi, balki o'z madaniyatini chuqur anglab, uni boshqalarga tushuntira olish darajasiga yetadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida bunday ko'nikmalar nihoyatda zarur hisoblanadi. Shuningdek, bunday yondashuv o'quvchilarning keng dunyoqarashga ega bo'lishiga, turli madaniyatlarga hurmat bilan qarashiga ham xizmat qiladi. Ular o'z milliy qadriyatlarini qadrlagan holda, boshqa xalqlarning a'ana va madaniyatlarini ham to'g'ri tushunishni o'rganadi. Bu esa madaniyatlararo muloqotning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim tizimida zamonaviy metodlar va milliy qadriyatlarni birgalikda rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali har tomonlama barkamol, bilimli, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 256 b.
2. Passov E.I. Kommunikativ metodika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Prosveshchenie, 1991. – 223 b.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997. – 63 b.
5. Saidaxmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Fan, 2003. – 192 b.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 240 b.
7. Safarova R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 180 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
9. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 154 b.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ	28
<i>Qodirbekova Zebaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOSSITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	66
<i>Raxmanov Omdjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI	70
<i>Bazarboyeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSIYON YONDASHUVLAR DRODALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOJIR	81

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскароев Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI	114

ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasay Muradjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unboyeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrakhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN R^n	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Onaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	188